

T.K.KUDAYBERGENOVA

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT
QILISHDA INNOVATSION XARAKTERDAGI NAZORAT
USULLARIDAN FOYDALANISH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

KUDAYBERGENOVA TAJIXAL KUCHKAROVNA
YANGIBAEV AYBEK QIDIRBAEVICH

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT
QILISHDA INNOVATSION XARAKTERDAGI NAZORAT
USULLARIDAN FOYDALANISH



NUKUS - 2019

Bu o'quv metodik qo'llanmada zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, balki, talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilish va baholashda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanish usullarini, shu bilan birga talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilish va baholashdan maqsad, reyting tizimi, uning maqsadi, vazifalari, turlari, tartib va mezonlari, innovatsion nazorat turlari, ulardan qachon, qanday foydalanish yo'llari, talabalarning mustaqil ta'limlarini tashkil etishga innovatsion yondoshuvlarni tashkil etish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi. Oquv metodik qo'llanmadan oliy ta'lim professor – o'qituvchilari, metodist – o'qituvchilar, talabalar, magistrlar, o'rta maxsus va umumta'lim o'qituvchilari uslubiy va dars ishlanmalarini yaratishda, nazoratlarni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin.

Ma'sul muharrir: f.f.n., dotsent A.Muratbaeva

Taqrizchilar:

QDU, "Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida dotsenti: f.f.n., A.Bayrieva

NDPI, "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasida dotsenti: p.f.n., R.Nurjanova

Mazkur o'quv- metodik qo'llanma Ajiniyoz nomidagi NDPI o'quv-uslubiy Kengashining 2016 yil ____-____dagi ____- sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Kirish

Mamlaktimizda ta'lim tizimini isloh qilish "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" negizida amalga oshirilib borilmoqda va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim-tarbiya sohasidagi keng ko'lamli islohotlarimizni, albatta, oxiriga etkazishimiz, bunday ta'lim dargohlarini nafaqat qurish, ta'mirlash va jihozlash, balki farzandlarimizni zamon talablari asosida kamol toptirish uchun eng yuksak malakali o'qituvchi va domlarni jalb etish, ularning bilim va tajribasini muntazam oshirib borishga eng muhim, g'oyat mas'uliyatli vazifa deb qarashimiz zarur¹".

Masalaning muhim jihati shundaki, zamon talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun zamonga mos ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim va tarbiya samaradorligiga erisha oladigan yuksak pedagogik mahoratga ega innovator professor - o'qituvchilar talab etilmoqda. Zamon shiddat bilan rivojlanar ekan oliy ta'lim tizimida tinimsiz ravishda ilg'or innovatsion texnologiyalarning yangi-yangi shakllarini qo'llab borish talab etilmoqda.

Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda. Bu o'quv qo'llanmada talabalarning o'quv

¹Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: "O'zbekiston", 2015-B.244.

faoliyatlarini nazorat qilish va baholashdan maqsad, reyting tizimi, uning maqsadi, vazifalari, turlari, tartib va mezonlari, innovatsion nazorat turlari, ulardan qachon, qanday foydalanish yo'llari, talabalarning mustaqil ta'limlarini tashkil etishga innovatsion yondoshuvlarni tashkil etish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning ahamiyati to'g'risida so'z yuritamiz.

1. Talabalar bilimni baholashdan maqsad

Talabalar bilimni baholashdan maqsad o`quvchilarga faqat qandaydir ballarni qo`yib borish emas, balki o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini nazorat qilib borishdan iboratdir. Kerak bo`lganda darsning borishiga o`zgartirishlar kiritish, tushunish qiyin bo`lgan joylarga qayta to`xtalish lozim bo`ladi.

Baholashning muhim belgilaridan biri shuki, dars o`z maqsadiga erishganligi, har bir o`quvchiga to`laligicha mustaqil ish bajartirilganligi, ular barchasi o`qituvchi rahbarligida amalga oshirilganligi ko`rsatiladi. Darsda shu narsani e`tiborga olish zarurki, o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalashning pedagogik jarayonlari bir maqsadga qaratilgan bo`lsa, dars to`g`ri baholanadi.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta`lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o`quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda.

2. Talabalar bilimni nazorat qilishda reyting tizimi, uning maqsadi, vazifalari, turlari, tartib va mezonlari

Reyting tizimining maqsadi: ta`lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o`zlashtirishida bo`shliqlar hosil bo`lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

REYTING TIZIMINING ASOSIY VAZIFALARI:

1. Talabalarda Davlat ta`lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko`nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

2. Talabalar bilimi, ko`nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta`lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta`minlash;

3. Fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o`zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

4. Talabalarda mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari va elektron manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;

5. Talabalar bilimni xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma`lum qilish;

6. Talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

7. O'quv jarayonining ma'lumotlar bazasini shakllantirishga sharoit yaratish.

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining DTSga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

Joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli.

Oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli.

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli.

Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi:

1. Fan o'qituvchisi tomonidan reyting nazoratlari jadvali ishlab chiqiladi va **JN** va **ON** larni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra majlisida muxokama qilinadi;
2. Kafedra mudiri tavsiyasi bilan **JN** va **ON** larni o'tkazish tartibi va mezonlari fakultet o'quv-uslubiy Kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi;
3. **JN** va **ON** larni o'tkazish tartibi va mezonlari xar bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi;
4. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda dars olib boradigan prof-o'qituvchi tomonidan talabalarga e'lon qilinadi;

Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

Seminar, laborotoriya, amaliy mashg'ulot, test o'tkazish, suhbat, loyihaviy topshiriqlar, amaliy keyslar, assesment.

Oraliq nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarda o'tkaziladi: yozma, og'zaki, assesment, test (nostandart testlar).

Yakuniy nazorat quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

1. Yozma (tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan holda);
2. Og‘zaki yoki test (Ilmiy kengashning qaroriga asosan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining 40%).

Baholash tartibi va mezonlari:

Har bir fan bo‘yicha talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **100 ballik** tizimda baholanadi;

Nazorat turlari bo‘yicha 100 ball quyidagicha taqsimlanadi:

Joriy nazorat - 40 ball;

Oraliq nazorat - 30 ball;

YAkuniy nazorat - 30 ball;

Talaba 86-100 ball olish uchun :

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo‘lish.

Talaba 55-70 ball olish uchun:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo‘lish.

Talabaning bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanadi:

- aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;
- bilmaslik.

Har bir professor – o‘qituvchida o‘zining o‘qitadigan har bir fanidan kafedra majlisida muhokama etib, ma‘qullangan va fakultet o‘quv - uslubiy Kengashining bayonnomasi bilan tasdiqlangan reyting grafigi va baholash mezonlari ko‘rsatilgan tavqimiy-tematik rejasi bo‘lishi zarur. Biz quyida shunday tavqimiy-tematik rejadani bittasini misol keltiramiz.

“TASDIQLAYMAN”
NDPI «Tarix» fakulteti
O‘quv-uslubiy Kengash raisi t.f.d. YA.
Abdullaeva

«_____» _____ 2017 y.

**“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limini o‘qitish
metodikasi” fanidan
Reyting grafigi va baholash mezonlari**

Nazoratlarni o‘tkazish bo‘yicha ballar taqsimoti quyidagicha belgilanadi:

JN - 40 ball
ON - 30 ball
YAN - 30 ball
JAMI – 100

JN - 4 marta o‘tkaziladi

Har bir JN uchun – 10 balldan ajratiladi

JNlar jadvalda keltirilgan shakllarda o‘tkaziladi

ON – 2 marta o‘tkaziladi

Har bir ON uchun – 15 ball ajratiladi

ONlar – jadvalda keltirilgan shakllarda o‘tkaziladi

YAN – o‘quv jarayoni grafigida belgilangan vaqtda yozma shaklda o‘tkaziladi

№	Nazorat turlari	O‘tkazish vaqti	BALLAR		Izoh
			ma k.	sar.	
1.	JN № 1	Sentyabrning oxirgi haftasi (Nazorat ishi yozma)	10		
2.	JN № 2	Oktyabrning oxirgi haftasi (Test o‘tkazish)	10		
3.	JN № 3	Noyabrning oxirgi haftasi (Seminar)	10		
4.	JN № 4	Dekabrning oxirgi haftasi (Uy vazifalarini tekshirish)	10		
5.	ON № 1	Topshiriqlar semestr davomida YANga qadar qabul qilinadi.(Test tarzida olinishi ham mumkin)	15		
6.	ON № 2	Mustqil ishlar (o‘quv loyihalari,keysar, amaliy	15		

		ishlar bo'lishi mumkin)semestr davomida YANga qadar kunning ikkinchi yarmida qabul qilinadi			
	JN+ON		70	39	
7.	YAN	O'quv jarayoni grafigida belgilangan vaqtda (YOzma)	30		
	JAMI		100	55	

0-54	-ballgacha	«qoniqarsiz»
55-70	-ballgacha	«qoniqarli»
71-85	-ballgacha	«yaxshi»
86-100	-ballgacha	«a'lo»

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektni puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- xuquqiy normalarni sharxlay bilsa;

b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;

➤ fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

➤ fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha konferensiyada tezis chop ettirgan bo'lsa;

v) 55-70 ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

➤ fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;

➤ fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;

➤ bayon qilish ravon bo'lmasa;

➤ fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;

➤ fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

➤ fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;

➤ fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;

➤ fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;

➤ fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;

➤ fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;

➤ fanni bilmasa.

P.f.n., dotsent

T.Kudaybergenova

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasida majlisida muhokama etib ma'qullangan _____2017 yil №__ sonli bayonnoma.

NDPI «Tarix» fakulteti o'quv - uslubiy Kengashining _____2017 yildagi №____ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

3. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanish

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda. Ayni o'rinda ana shunday vositalardan biri – "Assesment" texnologiyasi to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

"Assesment" inglizcha so'z bo'lib, "baho", "baholash" ma'nosini bildiradi. **Assesment texnologiyasi** talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, ijodiy ish, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, muammoli vaziyat, izohli lug'at, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Texnologiya, asosan, quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

- 1) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;
- 2) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- 3) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli reja (maqsadli dastur) ni shakllantirish.

Mazkur texnologiyaning yaratilish tarixi o'tgan asrning 30-40-yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to'g'ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o'rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofitserlarni tanlash maqsadida qo'llanilgan. Keyinchalik ushbu texnologiya tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi. Texnologiya birinchi marta 1954-yilda "AT&T" kompaniyasi tomonidan tadqiqot dasturlarini amalga oshirish doirasida qo'llanilgan. To'rt yildan so'ng malakali menejerlarni tanlash maqsadida qo'llanila boshlangan

texnologiya negizida tadbirkorlar psixologlar bilan hamkorlikda mazkur texnologiya yordamida ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalar hamda tashkilotlari uchun malakali mutaxassislarni tanlash xizmati – "Assesment-markaz" ("The Assessment Centre")ni yo'lga qo'yishgan. Keyinchalik ko'plab firmalar "Assesment-markaz" asosida malakali mutaxassislarni tanlashni ma'qul ko'rib, samarali qo'llangan bo'lsalar, ayni payti ta'lim tizimida, uning yordamida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasi har tomonlama, xolis baholanmoqda.



Ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari kamida to'rtta topshiriq bo'yicha baholanmoqda. Assesmentlarni qanday tashkil etish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Masalan: Konstitutsiyani o'rganish fanidan joriy yoki oraliq nazoratda quyidagicha assesmentlardan foydalanish mumkin.

Assesment

<p style="text-align: center;">1. Izohli lug‘at (0-3ball)</p> <p>Konstitutsiya bu -</p> <p>Prezident -</p> <p>Senat -</p>	<p style="text-align: center;">3. Muammoli vaziyat (0- 4ball)</p> <p>Poytaxt shifoxonalaridan biridan uncha uzoq bo'lmagan joydan gul butasi ostiga kimdir tashlab ketgan chaqaloq topib olindi. Bolaning kimligini aniqlash uchun bironta yozuv ham, hujjat ham uning yonida yo'q edi.</p> <p>Tabiiyki, chaqaloqni fuqarolik holati hujjatlarida qayd etish masalasi paydo bo'ldi. Familiyasi, ismi, otasining ismi ro'yxatga olgan shaxslar ixtiyoriga ko'ra belgilandi.</p> <p>Bolaning fuqaroligi masalasini hal qilishda muammolar kelib chiqdi, negaki ma'lumotlar yo'qligi tufayli bola tug'ilgan joyni aniqlash imkoniyati bo'lmadi.</p> <p><i>Sizningcha, bu bolaning fuqaroligi to 'g 'risidagi masalani qanday hal qilish kerak?</i></p>
<p style="text-align: center;">2. Ijodiy ish (0-5ball)</p> <p>O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.</p>	<p style="text-align: center;">4. Testlar (0-3ball)</p> <p>1. Ko`rsatilgan tuzilmalardan qaysi biri davlat apparatiga kirmaydi?</p> <p>A) Siyosiy partiyalar; B) Hokimiyatning qonun chiqaruvchi organlari; C) Hokimiyatning ijro etuvchi organlari; D) Davlatning nazorat va taftish organlari.</p> <p>2. Referendum nima?</p> <p>A) umumiy ovoz berish; B) «ha» yoki «yo`q» deydish; C) saylovda qatnashish; D) Prezident saylash;</p>

Talaba berilgan topshiriqlarni bajarishda har bir topshiriqning talablariga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Masalan, 2- ijodiy ishda quyidagi talablarga javob bersa, har bir to'g'ri javob uchun o'quvchi 1 ballni qo'lga kiritadi.

1. Berilgan qoidani tarixiy sharhlash va fikrni misollar bilan to'ldirish;
2. Berilgan qoida konstitutsiyaning qaysi bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish;
3. Berilgan qoidaning ahamiyatini yoritish va mavzu bilan bog'lash;

4. Ushbu qoidani inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish;

5. Qoidada berilgan “suveren”, “demokratik”, “respublika” soʻzlarining lugʻaviy maʼnosini yozib berish;

Quyida beshta topshiriq boʻyicha baholanadigan assessment topshiriqlarini misol keltiramiz.

Fakul'tet, kurs, guruh, FIO

<p style="text-align: center;">TEST</p> <p>1. “Muayyan hududda o‘troq hayot kechiruvchi va yagona hokimiyatga itoat etuvchi kishilar ittifoqi davlatdir”. Davlatga berilgan ushbu taʼrif kimga tegishli? A) N.M.Korkunov B) G. F. SHershenevich V) Immanuel Kant G) Jan Boden (0 yoki 1 ball)</p>	<p style="text-align: center;">MUAMMOLI VAZIYAT</p> <p>Davlat huquqni o‘rnatishi yoki sanksiyalashdan qati nazar, xuddi individdek bo‘lishi, ya’ni o‘z xatti-harakatida huquq bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Taʼrifni to‘g‘ri berilganmi, huquq bog‘liqlik jihatiga oydinlik kiriting. (0 yoki 1 ball)</p>	<p style="text-align: center;">TA’RIF BERING</p> <p>Davlatga taʼrif bering (0 yoki 1 ball)</p>
<p style="text-align: center;">SIMPTOM</p> <p>Davlatning mohiyatiga doir nazariyalarni ko‘rsating. (0 yoki 1 ball)</p>	<p style="text-align: center;">AMALIY KO‘NIKMA</p> <p>Davlatning belgilarini tahlil qilib bering. (0 yoki 1 ball)</p>	

<p style="text-align: center;">TEST</p> <p>1. Unitar davlatni ko‘rsating a) AQSH b) Yaponiya c) Rossiya d) Germaniya (0 yoki 1 ball)</p>	<p style="text-align: center;">MUAMMOLI VAZIYAT</p> <p>SHaxs mastlik holatida sodir etgan har qanday harakati uchun javobgar hisoblanadi va jazodan ozod qilinmaydi. (0 yoki 1 ball)</p>	<p style="text-align: center;">TA’RIF BERING</p> <p>“Muayyan hududda o‘troq hayot kechiruvchi va yagona hokimiyatga itoat etuvchi kishilar ittifoqidir. (0 yoki 1 ball)</p>
<p style="text-align: center;">SIMPTOM</p> <p>- Ikki yoki undan ortiq davlat</p>	<p style="text-align: center;">AMALIY KO‘NIKMA</p> <p>- ob'ekti (huquq bilan tartibga</p>	

<p>tuzilmasining mavjudligi, - sub'ektlarning tengligi va umumiy sub'ektga bo'ysunishi, - . huquqiy tizimlarning bir nechtaligi.</p> <p style="text-align: center;">(0 yoki 1 ball)</p>	<p>solinadigan ijtimoiy munosabatlar); - ob'ektiv tomoni (huquqning buzilishi va uning ijtimoiy xavfliligi); - sub'ekti (huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar); - sub'ektiv tomoni (huquqbuzarlik oqibatidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga bo'lgan ongli-ruhiy munosabat). (0 yoki 1 ball)</p>	
--	---	--

4. Talabalar bilimini baholash va nazorat qilishda innovatsion xarakterdagi nazorat usullari - keys, amaliy topshiriqlardan foydalanish namunalari

Hozirgi kunda pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri har tomonlama kuchli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunda darsda va amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida talabalarga etkazish qiyin, albatta. Shuning uchun ham o'qituvchilar talabalarning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etishga alohida ahamiyat qaratishi lozim.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurti talabalari tomonidan mustaqil ishlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha tajribalar hali etarli emas. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari mustaqil ishlarga etarli darajada e'tibor bermasdan an'anaviy usullar (referat yozish, misol echish va h.k.) bilan cheklanadilar, xolos. Bu turdagi usullar esa talabani mustaqil fikrlashga o'rgatmaydi, kasbiy ko'nikmasini rivojlantirmaydi, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshirmaydi.

Haqiqiy innovatsion pedagogik texnologiyalarda o'quv maqsadlari bo'lajak kasbiy faoliyatga qaratilgan bo'ladi. Bunday texnologiyalardan biri "**keys-stadi**"dir.

Keys - (inglizcha - TRUE LIFE atamasiga ko'ra) bu haqiqiy hayotning «bir parchasidir». Keys vaziyatning oddiy haqiqiy bayonigina emas, balki vaziyatni tushunish va baholashga imkon beradigan yagona axborot kompleksidir.

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study – ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega

bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo‘llanilgan. Keyinchalik keys metodi biznes yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida keng targ‘ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko‘payib bormoqda.



Keys-stadining o‘ziga xosliklari

1. Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo‘lishi.
2. Jamoaviy va guruhlarda o‘qitish.
3. Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
4. Xilma - xil o‘quv loyihalarini ishlab chiqish.
5. Muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish, baholash.

Biz quyida savolli keyslardan namunalar keltiramiz:

KEYS-STADI

1. VAZIYAT

Davlatlarning rivojlanish tendensiyalari masalasida o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashinayotganda, tarix fani o‘qituvchisi I.Kabirov O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi shakli haqida gapirib, uning tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi borligi uchun federativ davlat deb atadi. SHu joyda bo‘lgan huquqshunoslik fani o‘qituvchisi SH.Hasanov uning fikrini to‘g‘rilashga

harakat qilib, O‘zbekiston federativ davlat emas, balki federativ belgilarga ega bo‘lgan unitar davlat hisoblanishini aytdi. Geografiya fani o‘qituvchisi A.Otaboev qaysidir olimdan eshitgani asosida, O‘zbekiston murakkablashgan unitar davlat hisoblanishini, shu bois ularning har ikkisi ham xatoga yo‘l qo‘yganligini ta’kidladi. Xo‘sh O‘zbekiston Respublikasi asli tuzilish jihatidan qanday davlat?

Savol:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi qanday asoslarga ega?
2. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilish shakli bo‘yicha qaysi o‘qituvchining fikri to‘g‘ri?
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat tuzilish shakli bo‘yicha qanday davlat?

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning sabablari	Aniq echimni topish xarakatlari

2. VAZIYAT

Huquqshunoslik fanidan seminar mashg‘uloti paytida talaba SH.Xudoyberganov davlatlarning boshqaruv shakllari haqida gapirar ekan, Vatikan davlatini monarxiya davlati sifatida tilga oldi. Darsda ishtirok etayotgan talaba J.A’zamov Vatikan davlatini papa boshqarishi, u katolik ruhoniysi bo‘lib, umrining oxirigacha uylanmasligi, binobarin taxtga uning avlodi o‘tirmasligi tufayli mazkur davlat monarxiya hisoblanmasligini aytdi.

Savol:

1. Vatikan davlati boshqarilishi qanday shaklda?
2. Talabalarning bergan ta’riflaridan kelib chiqib vaziyatni tahlil qiling.

«Muammoli vaziyat» jadvali.

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning sabablari	Echimni aniqlash xarakatlari

3.VAZIYAT

Malayziya davlati to‘qqizta sultonlikdan iborat bo‘lib, sultonlar ma‘muriy birliklarni merosiy tartibda boshqaradi. Davlat rahbarini esa shu to‘qqiz sulton har besh yilda yangi muddatga saylab qo‘yishadi. SHu tariqa davlat rahbari bir necha muddat saylanishi ham, bir marta saylanib keyin saylanmasligi mumkin. Aytingchi, Malayziya boshqaruvga ko‘ra qanday davlat?

Savol:

3. Malayziyada respublika va monarxiyaga xos jihatlarni ajrating.
4. Malayziya davlatini boshqaruv shakliga ko‘ra qanday davlatlar qatoriga kirishini aniqlang.

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning sabablari	Vaziyatni echimini topish harakatlari

Talabalarning mustaqil ishlarini to‘g‘ri tashkil etishda amaliy topshiriqlar berish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Amaliy topshiriqlar

1-masala

Davlat shakllari tushunchasiga ta‘rif berishda quyidagi umumlashgan (ijtimoiy, sinfiy va sof yuridik nuqtai nazardan) yondashuvlar mavjud.

Mazkur yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarni muhokama qiling va yoritib bering.

2-masala

Davlatning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy-siyosiy guruhlarga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilishi uning mohiyatini ifodalaydi.

Davlatning mohiyatini atroflicha yoritib bering.

3-masala

Hokimiyat deganda umumiy ma'noda muayyan sub'ektning (individ, jamoa, tashkilot) boshqa sub'ekt (individ, jamoa, tashkilot) irodasini va yurish turishini shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yuzasidan bo'ysundirishi tushuniladi.

Hokimiyatni ifodalovchi belgilarga huquqiy baho bering va atroflicha muhokama eting.

4-masala

Davlat shakli – bu uning uch tarkibiy qismi (yoki tomoni) - boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli birlikda olingan siyosiy hokimiyat tashkiloti tushuniladi.

Ushbu holatda, davlat shaklining tarkibiy qismlarini muhokama qiling va izohlab bering.

Mavzu: Davlat shakllari

FIO

Kurs, potok, guruh

Quyida keltirilgan belgilar davlat tuzilish shaklining qaysi turiga oid ekanligini ko'rsatib bering:

No	Davlat tuzilish shakllining turlariga oid belgilar	Unitar davlatga xos belgilar	Federativ davlatning belgilari	Konfederatsiyaning belgilari:
1.	Qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati organlari yagona tizimining mavjudligi			
2.	Hududi uning alohida sub'ektlaridan – shtatlar, kantonlar, respublikalar, o'lkalar va boshqa hududlardan iborat bo'ladi		+	
3.	Suverenitetga ega bo'lmaydi, chunki ushbu tuzilma to'la ichki va tashqi suverenitetga ega bo'lgan mustaqil davlatlarning ittifoqidir			+
4.	Yagona konstitutsiya, qonunchilik, soliq, moliya tizimlarining mavjudligi	+		
5.	Markaziy davlat apparati va yagona qonunchilik tizimi mavjud bo'lmaydi			+
6.	Sub'ektlarining vakolatlari doirasi ittifoq		+	

	shartnomasida, konstitutsiyasida, o‘zaro vakolatlarni chegaralash to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomalarda belgilab qo‘yilgan bo‘ladi			
7.	Yagona fuqarolikning joriy etilganligi			
8.	Sub’ektlari o‘zlarining mustaqil qonunchilik, ijro, sud hokimiyatlari tizimiga ega bo‘ladi			
9.	Muayyan muammolarni hal qilish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida ittifoq organlari tashkil etilishi mumkin			
10.	Davlatda ittifoq fuqaroligi bilan bir qatorda sub’ektlarning ham fuqaroligi bo‘lishi mumkin		+	
11.	Birlashgan davlatlarning o‘z fuqaroligi saqlanib qolinadi, lekin bu davlatlarning fuqarolari erkin harakatlanish (viza va boshqa rasmiyatchiliklarsiz) huquqiga ega bo‘ladilar;			
12.	Parlament asosan ikki palatali bo‘lib, yuqori palata sub’ektlarining manfaatlarini himoya qiladi		+	
13.	Yagona soliq tizimi, byudjet va armiya mavjud bo‘lmaydi, lekin sub’ektlar muayyan muddatga yagona pul tizimi, bojxona qoidalari, davlatlararo kredit siyosati tashkil qilishlari mumkin			+
14.	Tashqi siyosat, qurolli kuchlarga yagona qo‘mondonlik, mudofaa, moliya, soliq tizimlariga rahbarlik asosan markaziy davlat organlari amalga oshiriladi		+	
15.	Uzoq muddatga saqlanib qolmaydi, bunda ular keyinchalik federatsiyaga aylanishi yoki umuman tarqalib ketishi mumkin			+

Umumiy ball _____

“Rezyume” texnologiyasi

Mavzu: Davlat shakllari

Davlatning tuzilish shakli	
Unitar davlat	
Afzalliklari	Kamchiliklari
.....
.....
.....
Xulosa	
.....	

Davlatning tuzilish shakli	
Federativ davlat	
Afzalliklari	Kamchiliklari
.....
.....
.....
Xulosa	
.....	

Davlatning tuzilish shakli	
Konfederativ davlat	
Afzalliklari	Kamchiliklari
.....
.....
.....
Xulosa	
.....	

5. Talabalarning mustaqil ta'limlarini tashkil etish va baholashda o'quv loyiha topshiriqlarini tashkil etish

Oliy o'quv yurti talabalari tomonidan mustaqil ishlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda. "Huquqshunoslik" fanlari bo'yicha talabani mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifalarini bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qushimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar echadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbaalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maqsimal reyting balining 55%dan kam to'plagan talaba fan bo'yicha o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Mustaqil ishlarni bajarish davomida talabalardan berilgan adabiyotlardan tashqari ilmiy jurnallardan, internet materiallaridan o'rinli foydalanishlari talab etiladi.

Oxirgi paytlarda ko'pgina oily o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'limlarini tashkil etishda o'quv loyihalaridan foydalanilmoqda. O'quv loyihalari talabalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri rejalashtirishlariga, undan unumli foydalanishlariga, kelgusida mustaqil hayotga qadam qo'yganlarida to'g'ri qaror qabul qilishlariga ularni o'rgatadi, ko'nikma va malakalarini hosil qiladi.

O'quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

Har bir o'quv loyihasi o'z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko'ra muayyan turga mansub bo'ladi. O'quv loyihalarining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv loyihalarining asosiy turlari

Axborotli loyihalar	Tadqiqot loyihalari	Amaliy loyihalar
Maqsadi		
Muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	Tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish
Natijasi		
Maqola, referat, ma'ruza, keys va b.	Hisobot, ma'ruza, keys va b.	Harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma to'plami va b.
Loyiha mavzusi (namuna)		
Konstitutsiya asosida yoshlar huququy madaniyatini shakllantirish yo'llari.	Yoshlar huquqiy madaniyati darajasi	Konstitutsiya asosida yoshlar huququy madaniyatini shakllantirish dasturi.

Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda "o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llaniladi. O'quv loyihaviy faoliyat – o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashkil etiladi.

Masalan: **Huquqiy madaniyat nazariyasi** fanidan talabalarning mustaqil ta'lim shakllarini tashkil etish va baholashda quyidagicha o'quv loyihasidan foydalanish mumkin.



LOYIHAGA OID O'QITISH TEXNOLOGIYASI

O'quv loyihasi:

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish»

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O'quv fani: «Huquqiy madaniyat nazariyasi»

O'quv mavzusi: «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish »

Ishtirokchilar: «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» yo'nalishi

Ta'limiy maqsad: Oliy ta'lim tizimidagi talabalarning o'quv materialini bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, Konstitutsiyaning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli to'g'risida ko'nikmalarini hosil qilish;

Rejalashtirilayotgan o'quv natijalar:

Talabalar-

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi umumiy tushunchalarini aytib beradi;

- Insonlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari - huquqiy madaniyat ko‘rsatgichi ekanligi haqida tushuntirib beradi;

- Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash-huquqiy madaniyatning konstitutsiyaviy tamoyili ekanligini aniqlaydilar;

- Konstitutsiyaviy tuzumning shakllanishini taqqoslaydilar.

Quyidagi loyiha faoliyati malakalariga: muammo, maqsadni belgilashni shakllantirish va vazifalarni ifodalash, ularga erishish yo‘llari va vositalarini asosli tanlash, o‘z faoliyatini rejalashtirish; o‘zini – o‘zi tahlil qilish va o‘z ishini boshqalarga nisbatan baholash; ma’lumotlarni kontekstli (parchaviy) izlashni o‘tkazish, uni bir tuzilmaga keltirish va tahlil qilish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, ma’lumotnomali axborot va hisobot shaklda taqdim etish; taqdimot qilish va muloqot malakalariga egalar.

Tayanch bilim va ko‘nikmalar. Loyihani muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar quyidagilarni bilishi va uddalashi lozim: Konstitutsiya, uning xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati, huquqiy madaniyat va uning konstitutsiyaviy tamoyillari; ma’lumotlarni qayta ishlash, maqsadni belgilash va hamkorlikda ishlash.

Namunaviy belgilariga muvofiq loyiha tasnifi:

- *Loyiha turi:* axborotli;

- *mavzu-mazmunli sohasi:* fanlararo;

- *talabalarning loyiha faoliyati yo‘nalishlarining tasnifi:* loyiha ishtirokchisiga o‘xshatishli, yashirin (bevosita);

- *ishtirokchilar soni:* bittadan to‘rttagacha;

- *muddati:* bajarish davomiyligi - 2 oy.

Loyiha bo‘yicha ish tartibi: darsdan tashqari ish faoliyati sharoitida bajariladi. Seminar mashg‘ulotlarida taqdimot qilinadi.

Loyihani baholash: guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- (mavzular bo'yicha) loyihaning alohida qismlarini, talabalarning yakka o'zlari bajarganliklari (maks. 10 ball);

- Hisobot (maks. 5 ball);

- Loyiha taqdimoti (maks.2,5 ball);

- Taqdimot jarayoni va loyiha himoyasi (maks.2,5 ball)

Loyihani o'qitish bosqichlari:

Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirish, talabalar faoliyatini tashkillashtirish - auditoriya ishi.

Loyihani bajarish bosqichi – auditoriyadan tashqari ish.

YAkuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyihani va talabalar faoliyatini baholash, loyiha faoliyatini o'zi tahlil qilish – *auditoriya* ishi.

Loyihaga oid o'qitishni tashkillashtirishni o'zi tahlil qilishi - *auditoriyadan tashqari* ish.

O'qitish modelining qisqa tasnifi: loyihali o'qitish jarayonida quyidagilardan foydalaniladi:

O'qitish usullari: loyihalar usuli, aqliy hujum, yo'riqnoma, matn bilan ishlash.

O'qitish shakllari: umumiy, guruhli, jamoaviy, yakka tartibli.

O'qitish vositalari: loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatma, kompyuter texnologiyalari.

Ishtirokchilar loyiha bo'yicha birinchi marta ishlayotganliklari hamda loyiha faoliyati bo'yicha malakalarga ega emasliklari bois, "Talabalar uchun uslubiy ko'rsatmalar" da quyidagilar taqdim etiladi: muammo, vazifa va faoliyat turlari.

O'QUV LOYIHASI

« O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI ASOSIDA YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH »

KIRISH

Mavzuning dolzarbligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovdan boshqa biror kishi yorqinroq ifodalay olmaydi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no mazmuni hamda mohiyatini uzluksiz o'rganish huquqiy madaniyatni shakllantirishning bosh omilidir.

O'quv fanining predmeti va vazifasi, metodlari, huquqiy fanlar tizimidagi o'rni, O'zbekistonda huquqiy madaniyatning asosiy prinsiplari, huquqiy madaniyatning tuzilishi, huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekanligini, huquqiy madaniyat nazariyasining asosiy tushunchalarini, yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishi, unda huquqiy ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini amalga oshirishda huquqiy madaniyatning o'rni va huquqni qo'llash - huquqiy madaniyat ekanligini, qonunga itoatkorlik va huquqiy tarbiya haqida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - huquqiy madaniyat tayanchi ekanligini bilishi kerak, huquq haqida, uning tartibga soluvchilik roli to'g'risida, huquqiy madaniyat va qadriyatlar haqida tasavvurga ega bo'lishlari kerak;

- talaba huquqiy madaniyatning nima ekanligini, O'zbekistonda huquqiy madaniyatning asosiy prinsiplari, huquqiy madaniyatning tuzilishi, huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekanligini aniq tasavvir qilishi; huquqiy madaniyatning qanday ahamiyatga ekanligini anglab etishi; konstitutsiyaviy iqtisodiy munosabatlar, saylovlar va davlatni boshqarishning faol ishtirokchisiga aylanishi, inson va fuqaro huquqlari, erkinliklari kafolatlanganligini chuqur his etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillarni va qoidalarni tahlil qilish, ulardan o'qish, fmehnat va hayot aoliyatida to'g'ri foydalanish, qonunlarni to'g'ri

sharhlash va tushunish, ularni boshqalarga o'rgatish, qonunga murojaat qilish, zarur hollarda uni qo'llash, o'z huquqlarini himoya qilish uchun tegishli organlarga murojaat qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Loyiha doirasida echimini topish talab etiladigan muammo: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha axborotli ma'lumotnomani tayyorlash.

Vazifalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida berilgan inson huquq va erkinliklarini o'rganish va ajratish.
3. Yoshlarga tegishli davlatimiz qonunlarini o'rganish va ularning ro'yxatini tuzish.
4. Yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishi bo'yicha anketa so'rovlarni o'tkazish va uni tahlil qilish, baholash.

Loyiha topshirig'i

Loyiha maqsadi (nima uchun yaratiladi): Oliy ta'lim tizimidagi talabalar o'quv materialini bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, Konstitutsiyaning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli to'g'risida ko'nikmalarini hosil qilish, yoshlar hayotida uchraydigan bahzi huquqiy muammolarni tahlil qilib, mustaqil xulosalar qabul qilishga o'rgatish;

Loyihaning yakuniy natijasi (mahsulot): "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish" bo'yicha axborotli ma'lumotnomali tasnifdagi tuzilmaviy axborot.

Loyiha mahsulotidan foydalanuvchilar: o'qituvchi, talabalar, mahnaviyatchi xodimlar hamda pedagogika fanlarini, jumladan, masofaviy o'qitish sharoitida o'rganuvchi talabalar.

Loyiha chegarasi:

- *Bajarish vaqti:* 1 oy (oraliq nazorat vaqtida taqdimot qilinadi);
- *Ishtirokchilar soni:* bittadan to'rttagacha.

Loyiha mazmuni:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish.

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinish zaruriyati va uning tarixiy ahamiyati.
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida berilgan inson huquq va erkinliklarini , burchlarini o‘rganish va ajratish.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlariga tegishli xalqaro hujjatlar va qonunlarni o‘rganish;

- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948 y);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt, (1966 y);
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt, (1966 y);
- Bola huquqi Deklaratsiyasi, (1956 y);
- Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, (1989 y);
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida berilgan inson huquq va erkinliklarini , burchlari;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida berilgan inson huquq va erkinliklarini guruhlariga ajratish:

- SHaxsiy huquq va erkinliklar;
- Siyosiy huquqlar;
- Ijtimoiy huquqlar;
- Iqtisodiy huquqlar;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan burchlar:

- Burch va Konstitutsiyaviy burch;
- Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish burchi;
- Tarixiy, madaniy va mahnaviy boyliklarni asrab – avaylash burchi;
- Soliq va yig‘imlarni to‘lash majburiyati;
- Vatanni himoya qilish burchi;

Yoshlarga tegishli davlatimiz qonunlarini o‘rganish va ularning ro‘yxatini tuzish.

- Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy Dasturi, (1997y);
- Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, (1997 y);
- Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun, (1997 y);
- Yoshlar siyosatiga oid davlat Dasturi;

Ish turlari:

- Mavzu, muammoning dolzarbligini asoslash, loyiha maqsadi va vazifalarini ifodalash.
- Axborot manbaasini tanlash, uni yig‘ish, tuzilmaga keltirish, matn, jadval, chizma hamda sharhlar ko‘rinishida rasmiylashtirish, xulosalarni yozish,(vazifalar bo‘yicha) foydalanilgan manbaalar ro‘yxatini tuzish.
- Loyihani rasmiylashtirish.
- Hisobotni tayyorlash.
- Loyihani taqdimotga tayyorlash.

Loyihani taqdim etish shakli: “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish” bo‘yicha axborotli ma’lumotnomasi

Hisobotni rasmiylashtirish tuzilmasi:

1. Loyiha mavzusi.
2. Loyiha maqsadi va yakuniy natija (mahsul).
3. Ishtirokchilar, (jadval ko‘rinishidagi) ishtirokchilar faoliyatining turlari.
4. Loyiha mavzusini dolzarbligini asoslash.
5. Echimi hal etilayotgan muammoni ifodalash va asoslash.
6. Vazifalar tartibi.
7. Loyiha-vazifalar echimining natijalari.
8. Foydalanilgan manbalar ro‘yxati.

TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

1. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo‘riqnomalar 1-bosqich. *Tayyorgarlik*

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyiha faoliyati turlarini aniqlang.

1.2. Axborot manbalarini aniqlang.

2- bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish

2.1. Maqsadga erishish yo'lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

- ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsmilang.
- Bajarish vaqtini va tayyor mahsulot turini aniqlang.

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasini (Lavha)

Ishtirokchi F.I	Vazifa	Faoliyat turi	Tayyor mahsulot turi	Bajarish muddati
A	Ta'lim – tarbiya muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi uning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning ahamiyati to'g'risida ma'lumot beruvchi axborot.	Birinchi hafta
.....	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklarning guruhlarini o'rganish va ajratish	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklarning guruhlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklarning har bir guruhlari bo'yicha ma'lumotnoma.	Birinchi va ikkinchi hafta
	Yoshlarga tegishli davlatimiz qonunlarini o'rganish va ularning ro'yxatini	Yoshlarga tegishli davlatimiz qonunlarini o'rganish va ularning	Yoshlarga tegishli davlatimiz qonunlarini o'rganish va	Uchinchi hafta

	tuzish	ro'yxatini tuzish, yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan foydalanayotgan, jamiyatda o'z o'rnini topgan yoshlarning yutuqlari to'g'risida ma'lumot yig'ish	ularning ro'yxatini tuzish, yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan foydalanayotgan, jamiyatda o'z o'rnini topgan yoshlarning yutuqlari to'g'risida ma'lumotnoma	
	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan burchlar ro'yxatini tuzish	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan burchlar ro'yxatini tuzish	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan burchlar bo'yicha ma'lumotnoma.	To'rtinchi hafta
	Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha ishi natijalarini bir butun holga keltirmoq.	“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish” mavzusidagi o'quv loyihasi	Beshinchi va oltinchi hafta
	Loyiha faoliyati natijalari hamda loyiha taqdimoti bo'yicha hisobot tayyorlash.	Mavzu, muammoni asoslash, loyiha maqsadi va vazifasini ko'rsatish.	Hisobot	Ettinchi hafta
	Loyiha taqdimotini MS Power Pointda yaratish.	Taqdimotni umumiy rasmiylashtirish hamda slaydlarni,... mazmunli ko'rsatkichlarini tanlash.	Taqdimot	Sakkizinchi hafta

3- bosqich. Amalga oshirish

A. Loyihani bajarish

3.1. Olingan axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtiring.

3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsulot).

B. Hisobotni tayyorlash

3.3. Tanlagan mavzuni dolzarbligini (bir betdan kam bo'lmagan) daliliy isbotlang.

3.4. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulotni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif) orqali ko'rsating.

3.5. Loyiha ishtirokchilarini ayting, ularning vazifalarini va faoliyat turlarini (jadval) asosida ko'rsating.

3.6. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni, (5-6 so'z) bilan asoslang.

3.7. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir mahnoli) ifodalang.

3.8. Vazifalar bo'yicha loyiha natijalarini bir butun holga keltiring.

3.9. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.

3.10. Bajarilgan mavzular bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

V. Loyihani taqdimotga tayyorlash

3.11. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang.

3.12. Loyiha taqdimotida guruh ahzolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang.

4 bosqich. Ochiq taqdimot, loyihani himoyalash va baholash

2. Loyihani va loyiha faoliyatini baholash

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- *loyiha (maks. 10 ball);*
- *hisobot (maks.5 ball);*
- *loyiha taqdimoti (maks.2,5 ball);*

➤ *loyiha taqdimoti va himoya jarayoni (maks.2,5 ball).*

Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash

	Baholash mezon	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 2 ball.
2.	Erishilgan natijalarni maqsadga muvofiqligi	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 3 ball.
3.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan etarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat.	Taqdim etilayotgan axborot etarli miqdorda, sifatli bo'lsa maks.2ball.
4.	Jadval va chizmalar	Jadval va chizmalarda bo'lsa maks.1,5 ball.
5.	Turli manbalarga ko'rsatmalarni berilishi	Keng tarmoqli axborot manbalaridan foydalanilgan bo'lsa, maks.1,5 ball.
Maks. ball: 10		

Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	Baholash mezon	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi (loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish yo'riqnomasiga qarang. <i>B. hisobot tayyorlash</i>)	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks.1ball.
2.	Tanlangan mavzuni asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 1 ball.
3.	Loyiha maqsadini belgilanishi	Aniq belgilangan, nima uchun u yaratilmoda, oxirgi natija qanday bo'ladi va kim uchun mo'ljallangan bo'lsa, maks.0,2 ball.
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarini bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball.
5.	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball.
6.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalarini umumiy holga keltirish.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari umumiy holga keltirilgan bo'lsa, maks. 1 ball.
7.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa,maks. 1ball.
8.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	
Maks. ball: 5		

Bajarilgan loyiha taqdimotini baholash

	Baholash mezon	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish <i>(Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga qarang)</i>	Yo'riqnoma izchilligi bo'lsa, maks. 0,5 ball.
2.	Slaydlar miqdori	Slaydlar miqdori 8 va 14 ko'p bo'lmagan

		talabga javob bersa, maks. 0,5 ball.
3.	Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari	Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari quyidagi talablarga muvofiq keladi: <ul style="list-style-type: none"> • birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, Q o'quv guruhi, yaratilgan kunidan iborat; • oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan; • boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi, maks. 1 ball.
4.	Texnik namoyish etish:	Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettirilsa, maks.0,5 ball.
Maks. ball: 2,5		

Bajarilgan loyiha taqdimoti va himoyasini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; So'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); Taqdimot vaqtida boadabsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari. Maks. 0,2 ball;
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda qatnashganlarda loyiha ularning qiziqishlarini uyg'otgan bo'lsa, maks. 1 ball.
3.	Ishtirokchilar faolligi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball.
4.	Savollarga javob berish	Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,3 ball.
Maks. ball: 2,5		

3. Loyiha taqdimoti

3.1. Og'zaki taqdimot qoidasi:

- Taqdimot o'zini taqdim etish bilan boshlanadi-loyiha ijrochilari bilan tanishtirish: «Men....».
- So'zga chiquvchilar belgilangan vaqtga rioya etadilar.Taqdimotni umumiy davomiyligi: 7-10 daqiqadan kam emas va 15 daqiqadan ko'p emas.
- Taqdimot vaqtida boadabsiz holatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Loyihani taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. Taqdimot quyidagi **tavsiflardan** iborat bo'lishi zarur:

1.1. Slaydlar *miqdori* (8-12).

1.2. *Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari*:

(1) birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, Q o'quv guruhi, yaratilgan kunidan iborat;

- (2) oxirgi slayd axborot manbasiga bag‘ishlangan;
 (3) boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

2. Texnik namoyish etish:

Slaydlar o‘z-o‘zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

**LOYIHALAR USULIGA ASOSLANGAN, O‘QITISHNING
 TEXNOLOGIK XARITASI**

O‘qitish turi. Ish bosqichlari. Belgilangan vaqt	Faoliyat	
	O‘qituvchi	Talaba
<i>Mustaqil ish</i>		
<p><i>1. Tayyorgarlik bosqichi.</i> 1.1. O‘quv motivatsiyasi. Loyiha mavzusini tanlash</p> <p>1.2. Loyihada vazifa va ish turlarini ajratish</p>	<p>Talabalarni loyiha faoliyati mohiyati va uni bo‘lg‘usi mutaxassislik mahoratiga ta’siri bilan tanishtiradi. Talabalarni loyiha ishiga bo‘lgan motivatsiyalarini uyg‘otish maqsadida savol –javob o‘tkazadi (ilova). Mavzularni taklif etadi, loyiha mazmuni to‘g‘risida ma’lumotlar beradi, ularni sohalarini ifodalaydi, ish turlarini ko‘rsatadi, ularning natijalarini aytadi. 3-4 kishidan iborat bo‘lgan guruhlariga birlashishlarini va loyiha mavzusini tanlashni taklif etadi.</p>	<p>Guruhlariga birlashadilar. Muhokama qiladilar va mavzu bo‘yicha umumiy xulosalarga keladilar.</p>
	<p>Axborot manbasini, uni yig‘ish va tahlil qilish yo‘llarini taklif etadi.</p>	<p>Muhokama qiladilar.</p>
<p><i>2. Loyiha faoliyatini rejalashtirish.</i></p>	<p>Vazifa va ish turlarini ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlab olishlarini taklif etadi. Muhokamada maslahatchi bo‘lib faol ishtirok etadi.</p>	<p>Harakat rejasini ishlab chiqadilar: loyihani yo‘nalishini va bajarish bosqichlarini aniqlaydilar, guruh ahzolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydilar, hamkorlikni shakllarini aniqlaydilar.</p>
Auditoriyadan tashqari ish		
<p><i>3 Loyihani bajarish</i></p>	<p>Guruh ishlariga maslahat beradi, boshqaradi, ular faoliyatini rag‘batlantiradi, kuzatadi, axborot manbasini izlashga yordam beradi. Faoliyatga qisman rahbarlik qiladi.</p>	<p>Ishtirokchilar o‘zlarining vazifalariga muvofiq ishlarni bajaradilar.</p>
<p><i>4. Natijalarni rasmiylashtirish</i></p>	<p>Guruh ishlariga maslahat beradi, boshqaradi, ular faoliyatini rag‘batlantiradi, kuzatadi.</p>	<p>Natijalarni belgilangan shaklda rasmiylashtiradilar. Loyiha taqdimotiga tayyorlanadilar.</p>

Demak, bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish, samaradorligini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash borasida boy tajriba to'plangan. Ular orasida loyiha ta'limi texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Loyiha ta'lim o'qitish jarayonini loyihalash, dasturlash, modellashtirish orqali talabalarga puxta bilimlarni berishni nazarda tutadi hamda talabalarning o'quv faolligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

6. Talabalar bilim, malaka, ko'nikmalarini nazorat qilish va baholashda nostandart testlardan foydalanish.

Professor - o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini o'rganish va tahlil qilish natijasi talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish yuzaki, ya'ni standart o'quv va test topshiriqlari asosida olib borilayotganligi, talabalarning o'zini-o'zi nazorat qilish jarayoni tashkil etilmayotganligini ko'satadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida professor - o'qituvchilar tomonidan o'quv kursi mazmuni boyicha test topshiriqlari bankini tuzib, mazkur testlardan My test dasturi vositasida adaptiv test topshiriqlarini yaratib, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni tashkil etilmoqda va bu jarayon ta'lim samaradorligining ortishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatayotgani belgisi bo'ldi.

Shuni qayd etish kerakki, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni oily ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas uzviy qismi bo'lib, mazkur jarayonning maqsadga muvofiq tashkil etilishi ta'lim samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Amaldagi nazorat turlarida asosan talabalarning bilimlariga urg'u berilib, ko'nikma va malakalari, ijodiy faoliyat tajribalari e'tibordan chetda qolmoqda.

O'quv kurslari bo'yicha tuzilgan test topshiriqlarining aksariyati reproduktiv test topshiriqlari bo'lib, ishchi dasturda ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malakalarning faqat bilimni aniqlash imkonini beradi. Ko'nikma va malakalarni aniqlash uchun tavsiya etilgan topshiriqlarning aksariyati bir xilda tuzilgan bo'lib, talabalarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish e'tibordan chetda qolayotganligini ko'rsatadi.

Professor - o'qituvchilar tomonidan talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini aniqlash uchun tuzilgan test topshiriqlari shu kurs darsligidan olingan bo'lib, ularning qiyinlik darajasi reproduktiv, ya'ni o'quv materiali qayta ishlanmasdan, aqliy operatsiyalar bajarilmasdan, xotirada

saqlangan ma'lumotlar asosida javob qaytariladigan test topshiriqlari hisoblanadi. Bunday holatlar esa oliy ta'lim muassasalarida nazorat va o'z – o'zini nazorat to'g'ri tashkil etilmayotganligini ko'rsatadi.

Innovatsion nazorat turlari Blum taksonomiyasiga ko'ra, talabalar tomonidan aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash va xulosa qilishni, ya'ni ijodiy fikr yuritishni talab qiladi.

Talabalarda ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish va rivojlantirishda innovatsion topshiriq turlaridan – keys stadi, o'quv loyihalari va qiyinlik darajalari produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ), nostandart testlar muhim o'rin tutadi.

Talabalarlarning o'zlashtirish darajalarini aniqlashda standart test topshiriqlari bilan birga nostandart test topshiriqlaridan foydalanish zarurati kelib chiqmoqda.

Test topshiriqlari qiyinlik darajasiga ko'ra:

- Reproduktiv;
- Produktiv daraja;
- Qisman izlanishli daraja;
- Ijodiy (kreativ) darjada bo'lishi mumkin.

1. Reproduktiv testlar - yodda saqlangan bilim, ko'nikma, malakalarni tanish orqali, qayta ishlamasdan javob bersa bo'ladigan testlardir;

2. Produktiv darajadagi testlar - olingan bilimlarni qiyoslash, farqlarni aniqlash va umumiy xulosa chiqarishni talab qiluvchi testlardir;

3. Qisman izlanishli darajadagi testlar- olingan bilimlarni taqqoslab, qisman izlanib, xulosa chiqarishni talab qiluvchi testlardir;

4. Ijodiy (kreativ) darjadagi testlar – talabalarining olgan bilim, ko'nikma , malakalarini kutilmagan holatlarda qolay oladigan darajadagi testlardir.

Shuningdek, testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra standart va nostandart testlarga bo'linadi.

Standart testlar - reproduktiv va produktiv darajadagi testlar hisoblansa, **nostandart testlar** qiyinchilik darjasi bo'yicha o'sib boruvchi test topshiriqlari hisoblanadi. Nostandart test topshiriqlaridan ta'lim – tarbiya jarayonida maqsadga

muvofig foydalanilsa, talabalarining bilim, ko'nikma, malakalarini oqilona nazorat qilish va haqqoniy baholash imkoniyati yaratiladi. Bu esa talaba va professor o'qituvchilar orasida sog'lom muhitni shakllantirib, bilim, ko'nikma, malakalarga to'liq ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni shakllantiradi.

Quyida biz e'tiboringizga "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" kursidan tuzilgan nostandart, produktiv testlardan bir nechtasini havola qilamiz.

NOSTANDART TESTLAR

1. Blum taksanomiyasi boyicha bilishga oid o'quv maqsadiga darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

Quyidagi ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri? Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yoq" so'zini yozing.

- A. Konstitutsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "**konstitutsio**"- tuzilish, belgilash degan ma'nolarni bildiradi.
- B. Dunyoda 1-Konstitutsiya Qadimgi Rimda qabul qilingan.
- C. Konstitutsiya so'zi yana "**o'rnatish, qonun, qoidalar**" degan ma'nolarni ham bildiradi.
- D. AQSHda 1- yozma qonun 1887-yilda qabul qilingan.
- E. O'zbekiston tarixida 1-Konstitutsiya 1938-yili qabul qilingan.
- F. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil, 8-dekabrda qabul qilingan.
- G. O'zbekiston Konstitutsiyasi 26 bo'lim, 6 bob, 127 moddadan iborat.

A	B	C	D	E	F	G
ha	yo'q	ha	ha	yo'q	ha	yo'q

2. Talabalarining tushunishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

Quyidagi berilgan huquq va erkinliklarni guruhlarga ajrating va mos kelgan javob raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

- 1) yashash; 2) mehnat qilish; 3) ijod erkinligi; 4) fikrlash; 5) bilim olish; 6) daxlsizlik; 7) soʻz erkinligi; 8) pensiya olish; 9) vijdon erkinligi;

SHaxsiy huquq va erkinliklar	1,4,6,9
Ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar	2,3,5,8

3. Talabalarining bilimlarni amalda qoʻllash oʻquv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

Berilgan fikrlarni tanlab moslang.

Q	Taʼrif	Q	Boblar
1.	Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar	A	X – bob
2.	Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qoyilgan burchlarini bajaradilar	B	XIY –bob
3.	Ota-onalar oʻz farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqishga majburdirlar	C	XYII –bob
4.	Suveren Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oʻzbekiston tarkibiga kiradi	D	XI – bob

Javoblar:

1-D	2-A	3-B	4-C
A	D	B	C

“Bitta konstitutsiya, davlat hokimiyati va qonun chiqaruvchi organlarning bir tizimi; yagona moliya va soliq tizimi, yagona qurolli kuchlar;”. Yuqoridagi taʼrif qanday davlatga nisbatan berilgan?

1. Federativ	2. Unitar	3. Monarxiya	4. Respublika
--------------	-----------	--------------	---------------

Javob: 2

4. Talabalarining tahlilga oid oʻquv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

Keltirilgan ta'riflarni atamasi bilan juftlang.

Q	Ta'rif	Q	Atama	
1.	Bitta konstitutsiya, davlat hokimiyati va qonun chiqaruvchi organlarning bir tizimi; yagona moliya va soliq tizimi, yagona qurolli kuchlar	A	Konfederatsiya	
2.	Oliy hokimiyatni davlat hokimiyatining saylov organlari amalga oshiradigan boshqaruv shakli.	B	Unitar davlat	
3.	Suverenitetga ega bo'lgan, ichki va tashqi ishlarda mustaqil sub'ekt hisoblangan muayyan maqsad uchun birlashgan, davlatlar ittifoqi.	C	Parlament respublikasi	
4.	Hukumat parlament tomonidan tashkil etilib, parlament oldida javob beradigan boshqaruv shaklini.	D	Respublika	
Javobi:	1 – B	2 – D	3 - A	4 – C

Keltirilgan ta'riflarni atamasi bilan juftlang.

Q	Ta'rif	Q	Atama
1.	Huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlanadi. Huquq psixologik yo'nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va instinktlarning mahsuli, deb qaraladi;	A	Huquqning sinfiy (marksistik) nazariyasi
2.	Huquq nazariyalarining eng qadimiylaridan biri. Uning vakillari huquqning o'zida adolatning mutlaq, o'zgarmas ibtidosini mujassam etganligidan kelib chiqadilar;	B	Teologik nazariya

3.	Ular huquq paydo bo'lgan va rivojlanadi deb hisoblaydilar. Erga ekilgan urug' kabi u xalqning ongida o'sib boradi va adolat, qonunlar shaklida namoyon bo'ladi. Huquq tabiatdan kelib chiqmaydi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko'rinishga keltirsa, u shunday bo'lib qoladi deyishadi;	C	Huquqning tarixny nazariyasi		
4.	Ular huquqning mohiyatiga urg'u beradi. Bunda huquq hukmron sinf irodasining qonun darajasiga ko'tarilganligi sifatida talqin etiladi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.;	D	Huquqning psixologik nazariyasi		
5.	Ular davlat va huquq xudo tomonidan berilgan , agar kimda-kim uni buzsa xudo oldida javob beradi deyishadi;	G	Tabiiy huquq nazariyasi		
Javobi:	1 - D	2 - G	3 - C	4 - A	5 - B

5. Talabalarning bilimlarni sintezlash o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

Davlatning shakllarini (A), boshqarish shakllarini (B), tuzilish shakllarini (C), siyosiy rejimini (D) aniqlang va jadvalning (javob) qismiga yozing.

1. monarxiya	9. avtolitar
2. unitar	10. prezidentlik
3. federativ	11. absolyut
4. demokratik	12. tuzilish
5. respublika	13. fashistlik
6. boshqarish	14. parlamentar
7. konfederativ	15. konstitutsiyaviy

8. totalitar		16. siyosiy rejim		
Javob:	A – 6, 12, 16.	V –1, 5, 10, 11,14,15.	S – 2, 3, 7.	D – 4, 8, 9, 13.

6. Talabalarning xulosa yasashga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

1. Keltirilgan ta’rifni atamasi bilan juftlang.

Q	Xususiyatlari	Q	Davlat shakllari
1.	Bular davlat sinfiy ziddiyatlar murosasizligining mahsuli va ko‘rinishidir deyishadi	A	teologik nazariya
2.	Davlatning kelib chiqishini xudo yoki diniy ta’limot bilan bog‘laydigan nazariya	B	zo‘rluk nazariyasi
3.	Davlatning paydo bo‘lishi bir qabilani ikkinchi kuchsizroq qabilani bosib olishi va o‘ziga bo‘usundirishi natijaida kelib chiqqan	C	Irrigatsiya nazariyasi
4.	Bu nazariya XVII-XVIII asrlarda yoyilgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Grotsiy va Spinoza, Angliyada — Lokk va Gobbs, Fransiyada — Russo Rossiyada A. N. Radishchev rivojlantirgan. Ularning fikricha, hokimiyat xalqqa tegishli bo‘lib, xalq uni monarxga bergan. Agar monarx hokimiyatni suiiste’mol qilsa, xalq qo‘zg‘olon ko‘tarishga va monarxni taxtdan ag‘darishga haqli bo‘ladi.	D	Patriarxal nazariya
5.	Ushbu nazariya YUnonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo‘lgan va Arastu (Aristotel) asarlarida asoslab berilgan, XVII asrda ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam atoning hokimiyatni xudodan olib,	E	shartnoma nazariyasi

	o‘zining katta o‘g‘li — patriarxga, u esa o‘zining avlodlari bo‘lgan qirollarga berganligini isbotlashga uringan						
6.	Irrigatsiya nazariyasiga ko‘ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari SHarqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq. Ushbu nazariya nemis olimi Vitgfoegelning «SHarq istibdodi asarida ifodalab berilgan					F	markscha nazariya
Javob:	1 - F	2 - A	3 - B	4 - E	5 - D	6 - S	

2. So‘zlarni berilgan javoblari bilan juftlang.

1.	Qonunchilik palatasi qarorlari tomonidan imzolanadi?	A	Spiker
2.	O‘zbekiston Respublikasi Ijro xokimiyatining boshligi?	B	Prezident
3.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili	V	Bosh vazir
4.	O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyatning vakillik organiga boshchilik qiladi.	C	Ombudsman
5.	O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi Raisini ...boshqaradi.	D	hokimlar

Javob:	1 - B	2 - V	3 - C	4 -D	5 -A
---------------	--------------	--------------	--------------	-------------	-------------

3. To‘g‘ri javobni aniqlang. Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yoq” javoblari bilan ifodalang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a`zolarining takroriy saylovi quyidagi hollarda o‘tkaziladi: A) Agar saylov haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa; B)

Agar takroriy ovoz berish natijasida belgilangan miqdorda Senat aʼzolari saylanmagan boʻlsa.

2. Qoraqalpogʻiston Respublikasining Konstitutsiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid boʻlishi mumkin emas» deb Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 110-modda, 2-bandida yozib qoʻyilgan.

3. Oʻzbekiston SSR Konstitutsiyalari 1927, 1937, 1978 yillarda qabul qilingan

4 Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi;

5. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhim siyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqi boʻlib, u Konstitutsiyaning 116-moddasida mustahkamlangan.

Javoblar:

1.	2.	3.	4.	5.
ha	yoʻq	ha	yoʻq	yoʻq

XULOSA

Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan ta'lim sohasida ham yangi va yangi texnologiyalar shakllanib boraveradi. SHunday ekan, har bir pedagog o'z faoliyatida innovatsion ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga tayyor turishi va pedagogik mahoratini doimiy tarzda rivojlantirib borishi talab etiladi.

Chiqarilgan xulosalar asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- darslarda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratish;
- innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan har bir fan o'qituvchisi tajribasini doimiy oshirib borish;
- respublika oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni samarali tatbiq etish orqali bu borada pedagoglarning ish tajribalarini boyitish va ularda ta'lim jarayonini samarali tashqil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptirish;
- ta'lim sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash yo'lida innovatsion texnologiyalaridan samarali, muvaffaqiyatli foydalanishga doir mahalliy tajribalarni to'plash, ularni ommalashtirish;

O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHu bois har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

Texnologiyalardan foydalanayotgan ta'lim beruvchilar talabalarga bilim berishda, albatta samarali natijalarga erishadi. Ayniqsa, bu talabalarning mustaqil fikrlash, kasbiy mahorati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan izchil ravishda foydalanilinish orqali ta'lim tizimi yoki

jarayoni muntazam rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, innovatsion nazorat texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishga oqilona va ijodiy yondoshishga olib keladi va bunda ta'lim beruvchi o'z erkinligiga ega bo'ladi, darsda qo'llanilgan turli usullar, vositalar samaradorligini o'zi baholashi uchun imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar SH. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. Nashr uchun mas'ul: T. Risqiev. – Toshkent: SHarq NMK Bosh tahririyati, 1999.
3. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2015-B.244.
6. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
8. Abdullaev YU. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil /Mas'ul muhar. S. G'ulomov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
9. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.
10. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009 y.
11. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. – Tashkent.: TASHIS, 2001.
12. Abduqodirov A. A. “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2015 y.

13. Ibragimov X. I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
14. Yo‘ldoshev J.G‘. Xorijda ta‘lim.–Toshkent: SHarq , 1995.
15. Kudaybergenova T. K. “Huquqshunoslik fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish”. O‘quv metodik qo‘llanma.- Nukus “Golden-Print-Nukus” MCHJ bosmaxonasi.- 2017, 114 bet.
16. Pedagogika / Bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
17. Pedagogika / V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mishenko, E.M.SHiyanov. – Moskva: Vldos, 1997.
18. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
18. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.
19. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
20. Sayidahmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar.– T.: Moliya, 2003.
21. Slastenin V. A. Obshaya pedagogika. – Moskva: Pedagogika, 2003.
22. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya moduli boyicha ma‘ruzalar matni va amaliy mashg‘ulotlar. –T: TDPU, 2015.
23. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. – T: “O‘qituvchi”, 1997.
24. YUzlikaev F. R. Pedagogika institutida bo‘lajak o‘qituvchini didaktik tayyorlash jarayonini jadallashtirish. – Toshkent: Fan, 1995.
25. http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html.53.
26. <http://ziyonet.uz.uzc.education.system.college>.
27. <http://www.tdpu.uz>.

Mundarija

1. Muqaddima.....
2. Talabalar bilimini baholashdan maqsad.....
3. Talabalar bilimini nazorat qilishda reyting tizimi, uning maqsadi, vazifalari, turlari, tartib va mezonlari.....
4. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanish.....
5. Talabalarning mustaqil ta'limlarini tashkil etish va baholashda o'quv loyiha topshiriqlarini tashkil etish.....
6. Talabalar bilim, malaka, ko'nikmalarini nazorat qilish va baholashda nostandart testlardan foydalanish.
7. Xulosa.....
8. Foydalanilgan adabiyotlar royxati.....